



**XONADON O'G'IRLIGI JINOYATLARINI OLDINI OLISH,
ANIQLASH VA FOSH ETISH MASALALARI: MUAMMOLAR VA
YECHIMLAR**

O`zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi

3-O`Quv

Kursi 301- Guruh Kursanti

UMAROV SIROJIDDIN SAG`DULLA O`G`LI

Kirish:

Xonodon o'g'irligi – fuqarolarning shaxsiy hayoti, mulkiy daxlsizligi va ijtimoiy xavfsizligiga jiddiy tahdid soluvchi jinoyat turlaridan biridir. Ushbu jinoyat jamiyatda qo'rquv, ishonchsizlik va noxushlik muhitini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, xonadonlarda sodir etiladigan o'g'irliklar aholining xotirjamligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli xonodon o'g'irliklarini oldini olish, ularni aniqlash va fosh etish bugungi huquqni muhofaza qilish organlarining dolzARB vazifasiga aylangan.

1. Xonodon o'g'irligining huquqiy asoslari va jinoyat turlarining tahlili:

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida mulkka qarshi jinoyatlar, jumladan, o'g'irlik (169-modda) aniq belgilangan. Xonodon o'g'irligi esa, odatda, yashash joyida, egalari yo'qligida, yashirincha yoki kuch ishlatish orqali sodir etiladi. U quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- Yashirincha kirib, moddiy boyliklarni olib chiqib ketish;
- Uy egalari uqlab yotganida yoki chalg'itilgan vaqtda jinoyat sodir etish;
- Uyga kirish uchun ilg'or texnologik vositalardan foydalanish (elektron kalitlar, kod yechuvchi moslamalar);
- G'ayriqonuniy videokuzatuv yoki axborot yig'ish orqali tayyorlangan jinoyatlar.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, xonodon o'g'irligi jinoyatlari ko'p hollarda oldindan rejalashtirilgan va guruh bo'lib sodir etilgan jinoyatlar sifatida qayd etiladi.

Jinoyatning sabablari va sharoitlari:

Xonodon o'g'irligining omillari quyidagicha tahlil qilinadi:



- Ijtimoiy-iqtisodiy muammolar (ishsizlik, daromad yetishmasligi);
- Shaxsiy axloqiy zaiflik va huquqiy ongning pastligi;
- Uy-joy xavfsizlik tizimining zaifligi (kuzatuv kameralari yo‘qligi, qo‘riqlov xizmatlarining sustligi);
- Jamoatchilik nazoratining sustligi.

Bu muammolar faqat huquqiy chora-tadbirlar bilan emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ma’naviy-ma’rifiy ishlar orqali ham hal etilishi lozim.

Oldini olish choralar:

Xonadon o‘g‘irligining oldini olish ko‘p darajali yondashuvni talab qiladi:

a) Texnik-profilaktik choralar:

- Xonadonlarga videokuzatuv va signalizatsiya tizimlarini o‘rnatish;
- Zamonaviy qulflar va xavfsizlik eshiklari bilan ta’minlash;
- Uylarni masofadan turib nazorat qilish imkonini beruvchi qurilmalarni joriy etish.

b) Jamoaviy va ijtimoiy choralar:

- Mahalla va ko‘chalarni qo‘riqlashda jamoatchilik nazoratini faollashtirish;
- "Mahalla posboni", "Xavfsiz hudud" kabi loyihalarni kengaytirish;
- Huquqbazarliklarning profilaktikasi bo‘yicha mahalliy hokimiyatlar, fuqarolar yig‘inlari va IIB hamkorligini kuchaytirish.

c) Ma’rifiy va huquqiy targ‘ibot ishlari:

- Aholi o‘rtasida mulk daxlsizligi bo‘yicha targ‘ibot ishlarini kuchaytirish;
- Yoshlar bilan huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan trening va seminarlar o‘tkazish.

Jinoyatni aniqlash va fosh etish usullari:

Xonadon o‘g‘irliklarini aniqlash va fosh etishda zamonaviy kriminalistik usullarning ahamiyati katta:

- Daktiloskopiya, genetik ekspertiza, videoyozuvlar tahlili asosida jinoyatchini aniqlash;
- Jinoyatchilar orasida ilgari sudlangan shaxslar bo‘yicha ishslash;



- Mobil telefonlar, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘g‘irlangan buyumlarni aniqlash va jinoyatchining iziga tushish;

- Jinoyat sodir etilgan hududda doimiy razvedka faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

Shuningdek, tezkor-qidiruv tadbirlarini to‘g‘ri tashkil qilish, jinoyat sodir etilgan vaqtida qo‘snilalar, guvohlar bilan tezkor so‘rov o‘tkazish fosh etish samaradorligini oshiradi.

Xulosa va tavsiyalar:

Xonadon o‘g‘irligi jinoyatlarini kamaytirish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

- Aholining huquqiy madaniyatini oshirish orqali jinoyatlarning oldini olish;

- Har bir xonadonda minimal xavfsizlik choralarini joriy etish bo‘yicha davlat tomonidan subsidiya va imtiyozlar berish;

- Jinoyatni fosh etish bo‘yicha IIB xodimlarining malakasini oshirish, ularni zamonaviy vositalar bilan ta‘minlash;

- Jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish orqali fuqaroviylar ongini rivojlantirish.

Shunday qilib, xonadon o‘g‘irligi jinoyatlarining oldini olish, aniqlash va fosh etish kompleks yondashuvni talab etadigan, huquqiy, texnologik va ijtimoiy jihatlarni o‘z ichiga olgan muhim vazifalardan biridir. Bu boradagi muvaffaqiyat jamiyatda tinchlik va xotirjamlikni ta‘minlashga bevosita xizmat qiladi.